



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 356 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibril ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida.....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullarga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinov Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlarini	148
Mamadiyev Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallovskaya Maksudaxon Ergashevna	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабинович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli	



O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
<i>Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna</i>	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
<i>Arslanova Umidaxon Komiljon qizi</i>	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
<i>Adilova Zulfiya Djavdatovna</i>	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
<i>Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi</i>	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
<i>Abdukhaliyeva Feruzakhon Ulugbek kizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
<i>Abdullayeva Ugiloy Djurayevna</i>	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
<i>Aripova Sayida Abdullaxatovna</i>	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi	217
<i>Rasuljon Atamuratov</i>	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
<i>Azizova Shodiya Utkur qizi</i>	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
<i>Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna</i>	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
<i>Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li</i>	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
<i>Ochilova Sarvinoz Salim qizi</i>	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
<i>Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi</i>	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
<i>Risvayeva Charos Zaydilla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi.....	242
<i>Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
<i>Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi</i>	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
<i>Umirova Guldon Jamoliddin qizi</i>	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari	251
<i>Ungalov Akmal Navruzovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
<i>Xabirova Zulfiya Anvarbekovna</i>	
Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
<i>Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li</i>	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati.....	260
<i>Yuldasheva Mastura Islamovna</i>	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
<i>Алламбергенова Шахноза Садатдиновна</i>	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
<i>Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
<i>Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna</i>	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	280
O'rinova Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamila Elbrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmenov Allayar Abdilxaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlar va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	



NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARI O'QUVCHILARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNI BOSHQARISH

Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish va ushbu jarayonni boshqarishning nazariy, metodik hamda amaliy asoslari yoritilgan. Kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoitlar, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim subyektlari o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Tahlillar asosida mazkur jarayonni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, kreativ fikrlash, boshqaruv, nodavlat ta'lim tashkiloti, ijodiy salohiyat, innovatsion ta'lim, pedagogik muhit.

Abstract: This article explores the theoretical, methodological, and practical foundations of developing students' creative thinking and managing this process in non-governmental educational institutions. The study analyzes pedagogical conditions that foster creativity, modern technologies, collaboration among educational actors, as well as existing challenges and their solutions. Based on the analysis, recommendations were developed for further improvement of this process.

Key words: creativity, creative thinking, management, non-governmental educational organization, creative potential, innovative education, pedagogical environment.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические, методические и практические основы формирования креативного мышления учащихся и управления данным процессом в негосударственных образовательных организациях. Анализируются педагогические условия, способствующие развитию креативности, современные технологии, взаимодействие субъектов образования, а также существующие проблемы и пути их устранения. По результатам анализа разработаны рекомендации по дальнейшему совершенствованию данного процесса.

Ключевые слова: креативность, креативное мышление, управление, негосударственная образовательная организация, творческий потенциал, инновационное образование, педагогическая среда.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida o'zgaruvchan bozor talablari, texnologik taraqqiyot hamda jamiyat ehtiyojlari o'quvchilardan nafaqat chuqur bilimga, balki yangicha fikrlash, muammolarga noan'anaviy yondasha olish va ijodiy salohiyatga ega bo'lishni talab qilmoqda. Ayniqsa, nodavlat ta'lim tashkilotlari raqobatbardosh bo'lishlari uchun o'quvchilarda kreativlikni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilamoqdalar.

Mazkur maqolada aynan nodavlat ta'lim muassasalari doirasida kreativlikni shakllantirish jarayonini qanday boshqarish mumkinligi, bu jarayonning asosiy bosqichlari, pedagogik yondashuvlari, samarali mexanizmlari hamda mavjud muammolari tizimli tarzda yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim tizimida kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, nodavlat ta'lim tashkilotlari o'zining erkinlik va yangilikka ochiqligi bilan o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Bunday muassasalarda o'quv jarayonini samarali boshqarish, ijodiy muhit yaratish hamda interaktiv metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning kreativ salohiyatini yuzaga chiqarish mumkin.



Kreativlik (lotincha creare – “yaratmoq”) – bu shaxsning yangilik yaratishga qaratilgan fikrlash uslubi, muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal qilish qobiliyati, mavjud andozalardan chiqib fikrlash va original g'oyalarni ilgari surish salohiyatidir.

Kreativlik shuningdek, yangi, noodatiy va foydali g'oya, mahsulot yoki yechim yaratish qobiliyatini anglatadi. Ta'lim jarayonida esa bu – o'quvchining erkin fikrlashi, muammolarga yangicha yondashuvi, mustaqil izlanishi va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'lim jarayonida kreativlik quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

- o'quvchilarda o'quv materialiga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi;
- mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantiradi;
- turli hayotiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatini oshiradi;
- zamonaviy kasb-hunar egalari bo'lishga tayyorlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davomida mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik manbalar, didaktik materiallar, o'quv rejalari va dasturlari, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darsliklar hamda o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, pedagogik tajriba va tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosini nodavlat ta'lim tashkilotlari (NTT) o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish jarayonini boshqarishga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar, olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, shuningdek, mazkur jarayonni amaliy kuzatish tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda dunyo miqyosida “4K” (Creativity, Critical thinking, Collaboration, Communication) kompetensiyalaridan biri sifatida kreativlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Nodavlat ta'lim muassasalari esa bu jarayonda ilg'or metodlarni tatbiq etish orqali o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish va uni boshqarishda yetakchi bo'lishi mumkin.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga xos bo'lgan quyidagi jihatlar ajralib turadi:

- Innovatsiyalarga ochiqlik – yangi pedagogik tajribalarni o'tkazish imkoniyatining kengligi;
 - Individual yondashuvga e'tibor – har bir o'quvchining qiziqishlari va qobiliyatlari inobatga olinadi;
 - Zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish – raqamli vositalar, onlayn platformalar va interaktiv metodlarning joriy etilishi;
 - O'quv dasturlarining moslashuvchanligi – kreativ faoliyatga vaqt va resurslar ajratilishi.
- O'quvchilarda kreativlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy usullar quyidagilardan iborat:
1. Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) – o'quvchilarning muammoni aniqlashi, tahlil qilishi, yechim taklif qilishi va uni amaliyotda sinab ko'rishi orqali kreativ tafakkuri rivojlanadi.
 2. STEAM yondashuvi – fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi orqali ijodiy fikrlash kuchaytiriladi.
 3. Raqamli texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlar – simulyatsiyalar, onlayn dizayn vositalari va kreativ platformalar (masalan, Tinkercad, Canva, Scratch) yordamida o'quvchilar o'z g'oyalarini real mahsulotga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
 4. Ochiq muhit va erkin muloqot – o'qituvchining “murabbiy” sifatidagi roli, erkin savol-javoblar, jamoaviy ishlar orqali o'quvchining o'zini erkin his qilishi ta'minlanadi, bu esa ijodiylikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarida kreativlikni rivojlantirish ushbu jarayonni strategik boshqarish zaruratini yuzaga keltiradi. Kreativlikni shakllantirishni boshqarish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Strategik rejalashtirish – kreativlikni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadlar, topshiriqlar va o'quv jarayoni mazmunini belgilash.

XXI asrda ta'limning asosiy maqsadi – faqat bilim berish emas, balki mustaqil fikrlovchi, yangicha qaror qabul qila oladigan va kreativ salohiyatga ega shaxsni shakllantirishdan iborat. Shu bois, bu jarayonni samarali tashkil etishda strategik rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kreativlikni shakllantirish – tasodifiy yoki bir martalik faoliyat emas, balki uzoq muddatli, puxta rejalashtirilgan va tizimli boshqaruvni talab qiluvchi jarayondir.

Strategik rejalashtirish – bu ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan uzoq muddatli maqsadlarga erishish yo'llarini aniqlovchi tizimli jarayondir. Ta'lim jarayonida kreativlikni shakllantirish bo'yicha strategik rejalashtirish quyidagilarga asoslanadi:

- maqsadlarni aniq belgilash;
- mavjud resurslarni baholash;
- ijro mexanizmlarini ishlab chiqish;



- natijalarni baholash va monitoring olib borish.
Strategik rejalashtirishning afzalliklari:
- 1. Uzlüksizlikni ta'minlaydi – kreativlikni rivojlantirish uchun metodik yondashuvlar, vositalar va baholash mezonlari bosqichma-bosqich joriy etiladi;
- 2. Aniq maqsadga yo'naltiradi – o'quvchilarning ijodiy salohiyatini san'at, texnologiya, dizayn, muhandislik kabi aniq yo'nalishlarda rivojlantirishga yo'l ochiladi;
- 3. Resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi – vaqt, o'qituvchilar malakasi, o'quv jihozlari va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ta'minlanadi;
- 4. O'lchab bo'ladigan natijalarni beradi – rejalashtirish asosida kreativlik darajasi tahlil qilinadi, monitoring va teskari aloqa orqali natijalar baholanadi.
Strategik rejalashtirish bosqichlari quyidagilardan iborat:
- 1. Tahliliy bosqich – o'quvchilarning hozirgi kreativlik darajasi aniqlanadi (diagnostika, so'rovnomalar, testlar orqali); o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi baholanadi; ta'lim muhiti imkoniyatlari va cheklavlari aniqlanadi.
- 2. Maqsad va vazifalarni belgilash – uzoq muddatli (3–5 yillik) va qisqa muddatli (1 yillik) maqsadlar belgilanadi; har bir bosqich uchun aniq vazifalar, kutilayotgan natijalar va baholash mezonlari ishlab chiqiladi.
- 3. Amalga oshirish mexanizmlari – loyiha asosida o'qitish, STEAM va interaktiv metodikalar joriy etiladi; darsdan tashqari kreativ klublar, tanlovlar, master-klasslar yo'lga qo'yiladi; o'qituvchilar uchun kreativ metodikalarga oid treninglar tashkil etiladi.
- 4. Monitoring va baholash – faoliyat natijalari har oy yoki har chorakda tahlil qilinadi; portfoliolar, loyiha ishlari, muammoli topshiriqlar asosida baholash amalga oshiriladi; o'quvchilar va o'qituvchilardan doimiy teskari aloqa olinadi.

Faoliyat	Maqsad	Natija
Kreativlik bo'yicha yillik strategik rejani ishlab chiqish	Faoliyatni tizimlashtirish	Reja asosida ishlovchi ta'lim jamoasi
O'qituvchilar uchun seminar-treninglar	Yangi metodikalarni o'rganish	Kreativ metodlardan foydalanuvchi pedagoglar
Kreativlik tanlovlarini o'tkazish	O'quvchilarni rag'batlantirish	Qobiliyatli o'quvchilarning aniqlanishi
Onlayn portfoliolar yuritish	Ijodiy ishlarga baho berish	O'sish dinamikasini kuzatish imkoniyati

Kreativlikni shakllantirishni boshqarishda strategik rejalashtirish – bu uzluksiz, puxta o'ylangan hamda nati-jadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv faoliyatidir. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochishga, balki ta'lim muassasasining umumiy sifat ko'rsatkichlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Ta'limda innovatsion fikrlovchi avlodni shakllantirish esa aynan strategik yondashuv orqali erishiladigan muhim maqsad hisoblanadi.

Motivatsion omillarni belgilash

Motivatsiya – bu o'quvchining ma'lum bir faoliyatga ongli va faol tarzda kirishishini ta'minlovchi ichki energiya. O'quvchining motivatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning kreativ faoliyati shunchalik samarali kechadi.

Kreativlikni rag'batlantiruvchi motivatsion omillar quyidagicha tasniflanadi:

1. Ichki motivatsiya – o'quvchining o'z qiziqishi, qoniqish hissi va erkinlik istagi asosida kreativ faoliyatga jalb qilinishi.
 2. Tashqi motivatsiya – mukofot, e'tirof, baho yoki tanlovdagi g'alaba kabi tashqi rag'batlantiruvchi vositalar orqali faoliyatga kirishish.
- Motivatsiyani boshqarishning asosiy mexanizmlari:
- Individual qiziqish va ehtiyojlarni aniqlash
O'quvchining shaxsiy istaklari, qobiliyatlari va orzularini aniqlash orqali unga mos kreativ faoliyatlar taklif etiladi. Bunda maxsus so'rovnomalar, suhbatlar va ijodiy testlar qo'llaniladi.
 - Rag'batlantirish tizimini shakllantirish
Ijodiy teskari aloqa – har bir kreativ urinishni qadrlash, xatolarni tanqid emas, balki tahlil orqali o'rganish. Sertifikatlar, sovg'alar, ommaviy e'tirof – masalan, ijodiy tanlovlarda muvaffaqiyat qozongan o'quvchilarni taqdirlash.
- Nominatsiyalar joriy etish – “Eng kreativ loyiha”, “Haftaning ixtirochisi” kabi motivatsion unvonlar.



- Erkin va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish
O'quvchi o'z fikrini erkin bayon qilishi, xatolardan qo'rqmasligi kerak. Buning uchun raqobat emas, balki hamkorlik va qo'llab-quvvatlash asosidagi guruhli faoliyatlar tashkil etiladi.
- O'qituvchining shaxsiy motivatsiyasi
O'qituvchi o'zining ijodiy ishlari, tashabbuslari va yangiliklarga ochiqqligi bilan o'quvchilar uchun namuna bo'lishi lozim. Shu bilan birga, o'qituvchilarning kreativ faoliyatini rag'batlantirish tizimi (seminarlar, grantlar, mukofotlar) ishlab chiqilishi kerak.
- Ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi metodlar
Problem-based learning – o'quvchini real hayotiy muammolarni hal qilishga undaydi.
Gamification – o'yin elementlari orqali o'qitish jarayonini qiziqarli va interaktiv shaklga keltiradi.
Portfolio yuritish – o'quvchining kreativ yutuqlarini tizimli tarzda aks ettirishga xizmat qiladi.

Faoliyat	Maqsad	Motivatsion ta'sir
Kreativ ishlarga doir tanlovlar	Raqobatbardoshlik va tan olinishni oshirish	Tashqi motivatsiya
Shaxsiy ijodiy portfoliolar	O'z-o'zini qadrlashni rivojlantirish	Ichki motivatsiya
Guruhli loyiha ishlari	Hamkorlik orqali o'rganish	Ijtimoiy motivatsiya
Ilhomlantiruvchi uchrashuvlar (san'atkor, olim bilan)	O'rnatish olish	Ichki ruhiy ko'tarinkilik

Kreativlikni shakllantirishda motivatsiya yetakchi omil sifatida alohida o'rin egallaydi. O'quvchining ichki qiziqishi, tashqi rag'batlantirish vositalari, o'qituvchining qo'llab-quvvatlashi hamda qulay ta'lim muhiti ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlaydi. Har bir ta'lim tashkiloti mavjud sharoitdan kelib chiqqan holda, kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi individual motivatsion strategiyalarni ishlab chiqishi va qo'llashi zarur.

Kreativlikni baholash tizimini joriy etish

An'anaviy baholash usullari (testlar, ballar) kreativ faoliyatni to'laqonli aks ettira olmaydi. Shu sababli, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini baholashda alternativ va innovatsion yondashuvlarga asoslangan baholash tizimlarini joriy etish zaruratga aylanmoqda. Bunda portfoliolar, ijodiy topshiriqlar, yakuniy loyihalar kabi faoliyatga asoslangan baholash vositalari ustuvor ahamiyatga ega.

Kreativlikni baholash nima uchun kerak?

- O'quvchining ijodiy salohiyatini aniqlash;
- Shaxsiy rivojlanish bosqichlarini monitoring qilish;
- Ta'lim jarayoni va metodik yondashuvlarning samaradorligini baholash;
- O'quvchilarni rag'batlantirish va ularning yutuqlarini aniqlash;
- Teskari aloqani yo'lga qo'yish va individual rivojlanish strategiyalarini shakllantirish.

Mezon	Mazmuni
Yangilik (originality)	G'oyaning o'ziga xosligi, yangiligi
To'liqlik (elaboration)	G'oya yoki mahsulotning detallashtirilganligi
Moslik (relevance)	Muammoning yechimiga mosligi, mavzuga aloqadorligi
Moslashuvchanlik (flexibility)	Har xil yondashuvlarni taklif eta olish qobiliyati

O'quvchilarning kreativligini baholashda bir qator metodlardan foydalanish mumkin. Quyida ularning asosiy turlariga to'xtalamiz:

1. Portfolio usuli – o'quvchining barcha ijodiy ishlari, loyihalari, rasm, matn va videolardan iborat elektron yoki bosma to'plam orqali baholanadi. Bu usul o'quvchining rivojlanishini dinamik tarzda kuzatish imkonini beradi.
2. Rubrikalar (Rubrics) – har bir baholash mezonini uchun 4–5 darajali (masalan: juda yaxshi, yaxshi, o'rtacha, past) baholash shkalasi asosida tahlil amalga oshiriladi. Bu mezonlar o'qituvchi va o'quvchi uchun baholash mezonlarining aniq va shaffof bo'lishini ta'minlaydi.
3. O'z-o'zini baholash va refleksiya – o'quvchi o'z faoliyatini mustaqil tahlil qiladi. Masalan: "Nimani uddaladim?", "Qaysi jihatlarni yaxshilashim kerak?" kabi savollar asosida yozma tahlil yuritadi.
4. Interaktiv baholash vositalari – Google Forms, Padlet, Mentimeter, Kahoot kabi onlayn platformalar orqali teskari aloqa olinadi. Vizual grafiklar yordamida o'zgarishlar kuzatiladi.
5. Ekspert bahosi – kreativ tanlovlar yoki loyiha himoyalari jarayonida mustaqil hakamlar (mutaxassislar, dizaynerlar, IT sohasi vakillari va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi.



Baholash tizimini joriy etish bosqichlari:

1. Baholash strategiyasini ishlab chiqish – baholash maqsadlari, mezonlari va shakllari aniqlanadi.
2. Uslubiy vositalarni tayyorlash – rubrika jadvallari, portfolio andozalari, refleksiya blankalari ishlab chiqiladi.
3. O'qituvchi va o'quvchini tayyorlash – yangi baholash tizimiga oid treninglar va amaliy ko'rsatmalar o'tkaziladi.

4. Baholash jarayonini amaliyotga tatbiq etish – dars va darsdan tashqari faoliyatlarda qo'llaniladi.

5. Monitoring va tahlil – baholash samaradorligi doimiy kuzatilib boriladi, kerakli o'zgartirishlar kiritiladi.

Kreativlikni baholash tizimi o'quvchining ijodiy salohiyatini aniqlash, rivojlantirish, yo'naltirish hamda uni rag'batlantirishda muhim vositadir. Bu tizim faqat baho qo'yish emas, balki shaxsiy o'sish, motivatsiya va konstruktiv teskari aloqa vositasi sifatida ko'rilishi kerak. Shu bois, har bir ta'lim muassasasi o'z sharoitidan kelib chiqqan holda kreativlikni baholashga oid moslashuvchan va samarali tizimni ishlab chiqishi lozim.

O'qituvchilar malakasini oshirish – kreativlikni shakllantirishning asosiy omili

Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining professional darajasi va kreativ yondashuvlariga bog'liq. Ayniqsa, kreativlikni shakllantirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. O'zi ijodkor bo'lmagan pedagog o'quvchida kreativ fikrlashni shakllantira olmaydi. Shu sababli, kreativlikni boshqarishda o'qituvchilar malakasini oshirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi (mentor), ilhomlantiruvchi, tanqidiy fikrlashga o'rgatuvchi va shaxsiy namunasi bilan yetakchi bo'lishi kerak. O'qituvchi ijodkor bo'lsa, uning darslari ham samarali, motivatsion va ijodiy kechadi.

O'qituvchilar malakasini oshirishning asosiy yo'nalishlari:

1. Kreativ pedagogika bo'yicha metodik treninglar – kreativ fikrlash, design thinking, loyiha asosida o'qitish (PBL), STEAM yondashuvlariga oid qisqa muddatli kurslar tashkil etish.
2. Amaliy seminarlar va ustoz-shogird dasturlari – tajribali ijodkor o'qituvchilar tomonidan master-klasslar, guruhli amaliy mashg'ulotlar orqali yangi metodikalarni sinovdan o'tkazish.
3. Raqamli vositalarni o'rganish – Canva, Padlet, Genially, Miro, Google Jamboard kabi platformalarda kreativ kontent yaratish ko'nikmalarini shakllantirish.
4. Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish – o'qituvchilar o'z darslarini tahlil qiladi, o'zgarishga tayyorlik ruhida ishlaydi, portfoliolar yuritadi va shaxsiy yutuqlarini baholaydi.
5. Ilmiy-tadqiqot va tajriba almashinuvi – metodik birlashmalar, vebinarlar, mahalliy va xalqaro konferensiyalar orqali tajriba almashadi; xorijiy mutaxassislar bilan aloqa o'rnatadi.

Tashkiliy-amaliy tavsiyalar:

- Har bir ta'lim muassasasida "Kreativ pedagoglar guruhi" tashkil etilishi maqsadga muvofiq.
- O'qituvchilar uchun "Ijodiy haftaliklar", kreativ tanlovlar, "Eng innovator o'qituvchi" kabi tadbirlar yo'lga qo'yilishi lozim.
- O'qituvchilar malakasini oshirishda xorijiy tajriba asosida tuzilgan modulli kurslar joriy etilishi zarur.

Ta'limda kreativlikni shakllantirish – bu faqat o'quvchi bilan ishlash emas, balki, avvalo, o'qituvchini ilhomlantirish, zamonaviylashtirish va yangilashdir. Malakali, kreativ yondasha oladigan pedagoglarga yosh avlodni yangilikka, mustaqil fikrga, tashabbus va ijodga yetaklay oladi. Shu sababli, o'qituvchilarning zamonaviy metodika, texnologiya va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish har qanday ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishiga aylanishi shart.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kreativ fikrlovchi shaxsni tarbiyalash – nodavlat ta'lim tashkilotlarining eng dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonni samarali boshqarishda innovatsion yondashuvlar, erkin va qulay ta'lim muhiti, loyihaviy faoliyat hamda raqamli vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu kabi kompleks yondashuvlar orqali nafaqat puxta bilimga ega, balki o'z g'oyalarini ilgari sura oladigan, ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor yosh avlodni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ken Robinson. Creative Schools. Penguin Books, 2015.
2. G'ulomov R. Zamonaviy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari. Toshkent, 2022.
3. Xalq ta'limi vazirligi. Pedagoglar uchun kreativlik metodikasi bo'yicha qo'llanma, 2023.
4. OECD. Teacher Professional Learning for the 21st Century, 2020.
5. Amabile, T. How to Kill Creativity. Harvard Business Review, 1998.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.